

"O'zkimyosanoat" AJ tizimi korxonalarini tomonidan Davlat kafolati ostida xorijiy mamlakatlardan moliyaviy institutlaridan jalb qilingan kredit mablag'larini to'g'risida ma'lumot

// 13 May 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/davlat-kafolati-kreditlari>



"O'zkimyosanoat" AJ tizimi korxonalarida davlat kafolati ostida umumiy qiymati **2,4 mlrd dollarga** teng bo'lgan **7 ta** investitsion loyihasi amalga oshirilib, xorijiy mamlakatlardan moliyaviy institutlaridan **1 451,6 mln dollar** (61%) mablag' jalb qilingan.

2022-yil 1-may holatiga tarmoq korxonalarimiz tomonidan reja grafiklariga muvofiq **430,7 mln dollar** (asosiy qarz **285,3 mln dollar**), shu jumladan, 2022-yil yanvar-aprel oylarida **79,4 mln dollar** to'lovlar amalga oshirilib, korxonalarining tashqi qarzдорligi **1 166,3 mln dollarni** tashkil qilmoqda.

Shu bilan birgalikda, 2022-yil yakuniga qadar yana **81,5 mln dollar** to'lovlar amalga oshirilishi kutilmoqda.

Jalb qilingan xorijiy kreditlarning **52 foizi (758,9 mln dollar)** Xitoyning "Eksimbank" bankidan, **40 foizi**

(580,5 mln dollar) Yaponiyaning JBIC hamda boshqa moliya institutlari, **8 foizi (112,2 mln dollar)** Germaniya va Shveysariya banklaridan jalb qilingan kreditlar hisobiga to'g'ri keladi.

Loyihalar kesimida ko'rib chiqadigan bo'lsak, jami tashqi qarzning **73 foizi (1 066,5 mln doll.)** "Navoiyazot" AJ tomonidan ammiak va karbamid hamda azot kislotasi ishlab chiqarish majmuasini qurish, polivinilxlorid (PVX) kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasini barpo etish loyihalarini amalga oshirish doirasida, **10 foizi (151,5 mln doll.)** "Dehqonobod kaliy zavodi" AJning qurilishiga, **11 foizi (156,4 mln doll.)** "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJni qurishga, **5 foizi (77,1 mln doll.)** "Qo'ng'iroq soda zavodi" MCHJ QKning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish loyihalarini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan.

Mazkur loyihalarning ishga tushirilgandan bugungi kunga qadar 6 030 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, 756 mln dollarlik ekvivalentda mahsulotlar ishlab chiqarilib, 576,1 mln dollarlik mahsulotlar eksportga yo'naltirildi hamda davlat byudjetiga 136,5 mln dollar ekvivalentda soliq to'lovlari to'lab berildi.

Iqtisodiy samara sifatida loyihalarning amalga oshirilganligi hisobiga tashqi qarz kreditlari bo'yicha to'lovlar to'liq amalga oshirilgunga qadar **7,6 mlrd dollarlik** ekvivalentda mahsulotlar ishlab chiqarilib, respublikada mazkur mahsulotlarga bo'lgan talab to'liq qondiriladi. Jumladan, **2,3 mlrd dollar** eksport hisobidan valyuta mablag'lari tushumiga erishilib, byudjetga qo'shimcha **930,4 mln dollar** ekvivalentda soliq to'lovlarining amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Bundan tashqari, "Navoiyazot" AJ misolida ko'radigan bo'lsak, investitsiya loyihalarning amalga oshirilishi hisobiga jamiyatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxida energiya resurslar ulushi **65-70 foizdan 47-55 foizgacha** pasaytirilishiga erishildi. Jumladan, jamiyatning jismonan eskirgan ammiak va azot kislotasi ishlab chiqarishining 1-2 navbatlarining o'rniga yangi ammiak va azot kislotasi ishlab chiqarishi quvvatlarning ishga tushirilishi natijasida 2020-yildan 2022-yilning aprel oyiga qadar **389,5 mlrd so'm** miqdorida **1 078,3 mln kVt** elektr energiyasining va **356,8 mlrd so'm** miqdorida **2,5 mln Gkal** issiqlik energiyasining iqtisod qilinishiga erishildi.

2021-yilda polivinilxlorid (PVX) mahsulotini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi natijasida **51 ming tonna** mazkur mahsulot ishlab chiqarilib, ichki iste'molchilarga yetkazib berildi va buning natijasida qariyb **55 mln dollarga** importni qisqartirishga erishildi. Joriy yilda ushbu ko'rsatkich **1,9 barobarga** oshishi hamda **116 mln dollarga** import qisqartirilishi kutilmoqda.

2020-yil yakunida ishga tushirilgan ammiak va karbamid majmuasi ham o'z samarasini bera boshladi. 2021-yilda qiymati **171 mln dollarga** teng bo'lgan **426 ming tonna** karbamid va **313 ming tonna** qo'shimcha ammiakli selitra mahsuloti ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2022-yildan boshlab mazkur majmuaning to'liq quvvatda ishlatilishi hisobiga qishloq xo'jaligi iste'molchilariga mineral o'g'itlar barqaror yetkazib berilishi ta'minlanib **188 mln dollar** ekvivalenti qiymatida qo'shimcha **500 ming tonna karbamid** hamda **315 ming tonna ammiakli selitra** mahsuloti yetkazib berilishi kutilmoqda. Bu esa, o'z o'rnida, agrotexnik tadbirlar o'z muddatlarida o'tkazilishini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga mineral o'g'itlarning uzilishsiz yetkazib berish, respublikamizning azotli o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirilishi, shu bilan birga, qo'shni respublikalarga va uzoq xorijiy davlatlarga eksport qilish imkoniyatini yaratdi.